

## ALPOMISH DOSTONI TADQIQOTIDA AKADEMIK TO'RA MIRZAYENING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20109490>

**Xasan Xaydarov**

*Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti  
Xalq ijodiyoti: Baxshi va doston ijrochiligi magistratura mutaxassisligi  
I - bosqich magistranti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola akademik To'ra Mirzayevning "Alpomish" dostonini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy maqolalari, monografik asarlari hamda tekstologik izlanishlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotchi tomonidan dostonning o'zbek variantlari qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganilib, ular orqali asarning qahramonlik ruhi va badiiy mahorat xususiyatlari ilmiy jihatdan ochib berilgani yoritiladi.

### **Kalit so'zlar**

folklor, epos, qahramonlik eposi, doston, variant, versiya, baxshi, syujet, folklor ekspeditsiyasi.

### **Resume**

This article analyzes the scientific articles, monographic studies and textual works of academician T. Mirzayev, dedicated to the Uzbek folk heroic epic "Alpamysh". It is proved that the researcher, on the basis of a comparative historical analysis of the Uzbek versions of this epic work, determined the peculiar poetic skills of folk storytellers.

### **Keywords**

folklore, epic, heroic epic, dastan, variant, version, storyteller, plot, folklore expedition

Akademik To'ra Mirzayev ilmiy merosida o'zbek xalq qahramonlik eposi sanalmish "Alpomish" dostonini tadqiq etish asosiy o'rinni egallaydi. "Alpomish" dostonini ilmiy jihatdan o'rganishga 1922 yilda G'ozim Olim Yunusov asos solgan edi. Biroq u dostonni ilmiy doiralarga tanitish va jamoatchilik e'tiborini o'zbek xalq eposlarini o'rganish masalasiga jalb qilish bilan cheklangan. Dostonni atroflicha ilmiy tahlil qilish va nashrga tayyorlash ishlari esa 1930-yillar oxirida Hodi Zarif hamda Hamid Olimjon tomonidan amalga oshirila boshlandi. Ammo akademik To'ra Mirzayevning keng ko'lamli va tizimli tadqiqotlari natijasida

o'zbek adabiyotshunosligida "Alpomish" va To'ra Mirzayev nomlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda tilga olinadigan bo'ldi.

To'ra Mirzayev dunyo folklorshunosligida ilk bor o'zbek xalq qahramonlik eposining klassik namunasi hisoblangan "Alpomish" dostonini to'la o'rganib, bu epik asarning o'zbek baxshilari repertuarida qayd qilingan barcha variantlarni qiyosiy tadqiq etish asnosida dostonlarning o'zbek xalqi epik taffakuri taraqqiyotida tutgan muhim o'rnini belgilab beradi. Olim doston sujetlarining tarixiy asoslari, shakillanish bosqichlari va baddiy rivoji sujet tizimdagi yetakchi motivlar poetikasini izchil o'rganib, "Alpomish" dostonini yaratilgan davrini aniqlab berdi. T.mirzayev o'z faoliyati davomida bu dostonni baxshilardan qayta va qayta yozib, ilmiy o'rganishni izchil davom etdiradi va ko'plab variantlarni birinchi chop etilishiga bosh, qosh bo'ladi. Jumladan Fozil Yo'dosh o'g'lidan yozib olingan namunaning ilmiy-akademik nashrini amalga oshiradi, doston matnining boshqa tillarga o'grilgan tarjimalarini nashr ettirib, o'zbek xalq qahramonlik eposining dunyo xalqlar madaniyatining benazir badiiy qadriyatlaridan biriga aylanishiga sababchi bo'ladi.

O'zbek dostonchiligi maktablarining Fozil Yo'dosh o'g'li, Ergash Jumabulbul o'g'li, Po'lkan shoir, Yorlaqab baxshi, Rahmatulla yusuf o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, kabi o'nlab zabardast siymolari ijodiyotini tadqiq va targ'ib etilishi ham bevosita To'ra Mirzayev nomi bilan bog'liq. U o'zbek dostonchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan xalq baxshilari repertuaridagi folklor asarlarini yozib olish, arxivlashtirish, nashr etish va o'rganish ishiga rahbarlik qilish bilan bir qatorda o'zi ham har bir baxshi haqida alohida ilmiy tadqiqotlar yaratadi.

O'zbek xalq baxshilarining ijrochilik mahorati va dostanchilik maktablarining epik an'alarini uzoq yillar moboynda o'rgangan. Ilmiy safarlardan biri 1963 yilning iyun-avgust oylarida Janubiy Tojikiston hududida, xususan Vose', Dangara, Qo'rg'ontepa va Kolxozobod tumanlari bo'ylab amalga oshirilgan folklor ekspeditsiyasi hisoblanadi. Mazkur ekspeditsiya davomida olim xalq og'zaki ijodi namunalarini bevosita ijrochilardan yozib olish, ularning repertuar xususiyatlarini o'rganish hamda ijrochilik an'alarini qayd etishga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, Dangara tumanining Joriqo'l qishlog'ida istiqomat qiluvchi 80 yoshli To'la soki Haybat o'g'li repertuarida "Alpomish" dostonining o'ziga xos, mahalliy an'analar bilan boyitilgan varianti mavjud ekani aniqlandi. Olim mazkur variantdan bir necha parchalarni yozib olish bilan birga, shu hududda tarqalgan boshqa ijro namunalarini ham qayd etdi, jumladan Bo'riboy Ahmedov tomonidan ijro etilgan variantlarni ham ilmiy qaydga kiritdi.

T.Mirzayev “Alpomish” dostonining o‘zbek baxshilari orasida keng tarqalgan turli variantlarini, shuningdek, dostonning prozaik shakldagi namunalarini atroflicha o‘rganib, ularni qiyosiy-tahliliy asosda tadqiq etdi. U har bir variantning kompozitsion qurilishi, syujet rivoji, obrazlar tizimi, badiiy-uslubiy xususiyatlari hamda ijrochilik an‘analariga xosligini ilmiy jihatdan oydinlashtirdi. Natijada “Alpomish” dostonining variantdorlik tabiati, hududiy xususiyatlari va ijrochilik maktablari o‘rtasidagi farqlar ilmiy asosda dalillanib, o‘zbek eposshunosligida muhim nazariy xulosalar shakllantirildi. Mazkur ekspeditsiya jarayonida jamlangan materiallar tadqiqotchiga Janubiy Tojikiston hududida istiqomat qiluvchi o‘zbek baxshilarining repertuarini umumio‘zbek dostonchilik an‘analari tizimi doirasida qiyosiy-tarixiy metod asosida atroflicha tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, to‘plangan manbalar folklorda versiya va variantlilik hodisasini nazariy-metodologik jihatdan o‘rganish, dostonchilik muhitida jonli ijrochilik an‘analarining saqlanish darajasi, ularning taraqqiyot bosqichlari va ichki qonuniyatlarini ilmiy asosda belgilashga xizmat qildi. Ayni paytda epik syujetlarning geografik tarqalish ko‘lami, ularning hududiy xususiyatlari hamda baxshichilik san‘atida kuzatilayotgan transformatsiya jarayonlarini tahlil etish uchun mustahkam empirik baza shakllandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlariga xos badiiy-strukturaviy va syujet-kompozitsion xususiyatlar, doston syujetiga asos bo‘lgan tarixiy omillar, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, tarqalish areali ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bundan tashqari, dostonchilik an‘anasida versiya va variantlilik muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy maqolalar yaratilib, o‘zbek eposshunosligida mazkur masalaning nazariy tahlili yanada chuqurlashtirildi. Jumladan, uning “variantlilik”, “versiya” va “variant” istilohlarini o‘zaro farqlab, ularning semantik chegaralari hamda funksional xususiyatlarini ilmiy jihatdan differentsiatsiya qilib bergani eposshunoslik metodologiyasi uchun ayniqsa muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Mazkur terminlarni aniq ilmiy mezonlar asosida tavsiflash orqali olim epik matnlarni tadqiq etishda tushunchaviy aniqlikni ta‘minladi va variantshunoslik yo‘nalishining metodologik poydevorini mustahkamladi. To‘ra Mirzayev “Alpomish” eposi variantlarini kompleks o‘rganish jarayonida ushbu doston o‘zbeklar orasida jonli og‘zaki an‘anada ikki alohida versiya shaklida tarqalgani va har ikki versiya ham muayyan ijrochilik muhitida barqaror ravishda yashab kelgani haqida ilmiy xulosaga keladi. Olim ularni shartli ravishda: a) “keng tarqalgan versiya” va b) “kam tarqalgan versiya” deb tasniflaydi. Tadqiqotchi, ayniqsa, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantning ikkinchi qismiga tayangan holda, mazkur ikki versiya o‘rtasida syujet qurilishi, kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi hamda g‘oyaviy yo‘nalishi jihatidan

prinsipial farqlar mavjud ekanini ilmiy dalillar asosida ko'rsatib beradi. Shu bilan bir qatorda, folklorshunos olim dostonning ayrim variantlariga yozma adabiyot ta'sirini ham maxsus tadqiq etadi. U, xususan, Berdi baxshi, Mamadrayim hamda Bo'riboy Ahmad o'g'li tomonidan ijro etilgan variantlarda badiiy tasvir vositalarining qadimiy, arxaik xususiyatlari deyarli saqlanib qolmaganini, ular muayyan darajada yozma adabiyot ta'sirida transformatsiyaga uchraganini ta'kidlaydi. Bu kuzatishlar epik an'ananing evolyusiyasi va tashqi adabiy omillar ta'siri masalasini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi. To'ra Mirzayev 1961–1964 yillarda aspiranturada tahsil olgan davrida folklorshunoslik maktabining yirik namoyandasi Hodi Zarif (X.Zarifov) ilmiy rahbarligi ostida "Alpomish" dostonining qariyb o'ttizga yaqin variantini qiyosiy-tipologik hamda qiyosiy-tarixiy metodlar asosida atroflicha tahlil qildi. Tadqiqotchi variantlarni kompleks o'rganish jarayonida nafaqat ularning syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi va g'oyaviy yo'nalishini, balki doston matnining shakllanishida tashqi omillar, xususan, nashr etilgan matnlarning ayrim o'zbek dostonchilari ijodiga ko'rsatgan ta'siri masalasini ham ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ma'lumki, epik meros ustoz-shogird an'anasi asosida avlodlardan avlodga o'tib, jonli og'zaki traditsiya shaklida hozirgacha davom etib kelmoqda. Baxshi o'z ustoz repertuaridagi dostonlarni uzoq yillar davomida tinglash, yod olish va ijro jarayonida qayta ishlash orqali o'zlashtiradi. Biroq epos matni nashr etilgan sharoitda savodli baxshi an'anaviy eshitish yo'li bilan bir qatorda bosma manba bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa muayyan darajada uning repertuaridagi variantga ta'sir ko'rsatishi, ayrim syujet chiziqlari yoki badiiy ifoda vositalarining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Olim Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Alpomish" dostoni nashrining keyingi davr o'zbek dostonchilari ijodiga ta'siri xususida maxsus mulohaza yuritib, ushbu nashr keng ommalashgani va katta shuhrat qozongani tufayli ayrim baxshilar repertuarida uning ta'siri sezilarli darajada aks etganini ta'kidlaydi. Keyingi yillarda turli baxshilar og'zidan yozib olingan variantlarni kuzatish natijasida Fozil Yo'ldosh variantining bosma matni muayyan ijrochilar ijodiga kuchli ta'sir o'tkazgani ayon bo'ladi. Ayni paytda, 1935 yilda Berdi baxshi varianti asosida nashr qilingan qismning dostonchilar repertuariga deyarli ta'sir ko'rsatmagani ilmiy dalillar bilan asoslanadi. T.Mirzayev shuni alohida qayd etadiki, "Alpomish" dostoni variantlari kompozitsion qurilishi, mavzu va g'oyaviy mazmuni, syujet tizimi jihatidan o'zaro nihoyatda yaqin va o'xshash bo'lsa-da, ularning matniy qiyofasi – ya'ni tekstual qurilishi, ifoda uslubi va badiiy detallar tizimi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu holat epik matnning variantdorlik tabiatini, uning jonli ijrochilik jarayonida doimiy ravishda yangilanib borish xususiyatini tasdiqlaydi. Folklor asarlarini barcha tur va

janrlar kesimida yaxlit, tizimli hamda ilmiy-metodologik asosda tadqiq etish usullarini takomillashtirishga katta hissa qo'shgan

T.Mirzayev o'zining o'zbek xalq qahramonlik eposini o'rganishga bag'ishlangan ko'p yillik izlanishlarini umumlashtirib, 1965 yilda "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Mazkur tadqiqot nafaqat o'zbek, balki turkiy xalqlar folklorshunosligida epos nazariyasiga doir ilmiy qarashlarni yangicha bosqichga ko'targan, epik matnning variantdorlik va versiyaviy tabiatiga oid nazariy yondashuvlarni tubdan boyitgan fundamental ish sifatida baholandi. Keyinchalik ushbu dissertatsiya 1968 yilda "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari" nomi bilan alohida kitob shaklida nashr etilib, eposshunoslik sohasidagi muhim ilmiy manbalardan biriga aylandi. To'ra Mirzayev jahon folklorshunosligi tarixida ilk bor o'zbek xalq qahramonlik eposining klassik namunasi sanalgan "Alpomish" dostonining xalq tafakkuri taraqqiyotida tutgan o'rnini nazariy-metodologik asosda belgilab berdi. U eposni nafaqat badiiy yodgorlik, balki etnik xotira, ijtimoiy-tarixiy tajriba va milliy o'zlikni ifoda etuvchi murakkab ma'naviy tizim sifatida talqin qildi. Olim doston syujetiga zamin bo'lgan tarixiy omillarni, uning shakllanish va takomillashish bosqichlarini, badiiy evolyusiya jarayonini hamda syujet tizimidagi etakchi motivlar poetikasini izchil va qiyosiy tahlil qildi. Shu asosda "Alpomish" dostonining epik asar sifatida shakllangan davrini X-XI asrlarga mansub deb ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mazkur xulosa keyinchalik qator nufuzli xorijiy ilmiy markazlar tomonidan e'tirof etildi. Xususan, uning "Alpomish"ga bag'ishlangan monografik tadqiqotlarining Germaniya, Turkiya va Rossiyada nashr etilishi ushbu ilmiy qarashlarning xalqaro miqyosda tan olinganidan dalolat beradi. T.Mirzayev o'z ilmiy faoliyati davomida dostonni turli baxshilar ijrosidan qayta-qayta yozib olib, uning matniy qiyofasini aniqlash, variantlar o'rtasidagi farq va mushtarak jihatlarni belgilash, epik an'ananing jonli harakatini kuzatishga alohida e'tibor qaratdi. U "Alpomish"ning ko'plab variantlarini birinchi marta ilmiy muomalaga kiritib, nashr ettirdi. Jumladan, Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan namuna asosida akademik talablar darajasidagi ilmiy-tanqidiy nashrni amalga oshirdi. Shuningdek, doston matnining boshqa tillarga tarjima qilingan nusxalarini chop ettirish orqali o'zbek xalq qahramonlik eposini jahon madaniyati xazinasiga olib chiqishga xizmat qildi. Folklorshunos olim "Alpomish" dostonining o'rganilishi va to'planishi tarixini, uning o'zbeklar o'rtasidagi tarqalish doirasini, versiya va variantlar tizimini, g'oyaviy mazmunini, badiiy-estetik xususiyatlarini, etakchi motivlar tarkibining yuzaga kelish va rivojlanish qonuniyatlarini keng qamrovda tadqiq etdi. U eposning nafaqat milliy adabiyotdagi, balki jahon epik an'analari kontekstidagi o'rnini ham ilmiy asosda

belgilab berdi. Zero, qahramonlik, mardlik va vatanparvarlik g'oyalari ulug'langan "Alpomish" dostoni asrlar davomida shu zaminda yashab o'tgan ajdodlarimizning ma'naviy qiyofasini, orzu-intilishlari va ijtimoiy ideallarini o'zida mujassam etgan benazir badiiy yodgorlikdir. T.Mirzayevning fundamental tadqiqotlari esa ushbu epik merosning chuqur ilmiy anglanishi va jahon madaniy merosi tizimida munosib o'rin egallashiga mustahkam zamin yaratdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev T. Tanlangan asarlar – Toshkent: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2026
2. AXMEDOVA, O. O 'ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING ETNOHUDUDIY XUSUSIYATLARI.
3. Axmedova, O. M. (2010). Освещение фольклорных религиозных мотивов в средствах массовой информации (на примере печати и радиовещания Узбекистана). *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (3), 35-38.
4. Avazova, M. E., & Axmedova, O. M. (2021). TOSHKENT VILOYAT OHANGARON TUMANI YOR YOR QO'SHIQLARINING O'ZIGA XOS POETIKASI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 196-201.
5. Akhmedova, A. (2021). Historical syncretism of folklore and media. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 335-340.
6. Axmedova, O. (2026). Соотношение традиции и импровизации в узбекском народном эпосе: Interplay of Tradition and Improvisation in Uzbek Folk Epic. *Journal of national culture*, 2(1), 150-156.
7. Shermanov, E. (2021). Role of mass media in the formation of participatory education in the context of globalization.
8. Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
9. Shermanov, E. (2024). Talabalarning madaniy daxldorlik fazilatini sun'iy intellekt vositasida o'qitish texnologiyalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
10. Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
11. Shermanov, E. U. Madaniy Kompetentlikni Rivojlantirishda Daxldorlik Fazilatining O'rni Va Ta'siri. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali*, 676322.

12. Shomuradovich, N. A. (2022). MAHALLA AS A MUSICAL PLATFORM. *Проблемы современной науки и образования*, (8 (177)), 120-123.
13. Sh, N. A. (2021). MAHALLA IS A HOTBED OF EDUCATION FOR THE YOUNGER GENERATION. *Проблемы современной науки и образования*, (12 (169)), 106-109.
14. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
15. Qizi, A. N. F. (2022). ALISHER NAVOIY VA MUSIQA. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Conference DSMI), 252-555.
16. Kolkanatov, A. (2023). IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 2, 67-69.
17. Nazarbai, K. A. (2023). NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 65-70.
18. Kolkanatov, A. (2025). The Need to Improve the Performance of Cultural Centers. *Turkology*, (2).
19. Qolqanotov, A. (2026). NATIONAL SONGS AS A SPIRITUAL NEED. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 4(2), 86-91.
20. Рахимов, Б. М., & Худайберганава, М. А. (2017). О роли музыки в жизни человека. *Молодой ученый*, (31), 74-77.
21. Oripova, R. I. Ways to develop the pedagogue's competence in improving the quality of education. StoneDAU. *Pedagogy, psychology and teaching methodology*.
22. Ibrohimovna, O. R. (2021). Tips system in module education. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 382-385.
23. Орипова, Р. (2022). ИНТЕГРАЛЛАШГАН ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИЯЛАР. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 877-888.
24. Орипова, Р. И. (2023). Касбий таълимда фанлаоро алоқадорликни таъминлаш масалалари. *Oriental Art and Culture*, 4(2), 750-754.